

MEHNAT TARBIYASI

Sh. A. Turdiyeva

M. Maxmudjonova

Sh. Qodirjonova

Andijon davlat pedagogika instituti

pedagogika va psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi

va kimyo o'qitish metodikasi yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada mehnat tarbiyasining mazmuni, uning shaxs kamolotidagi o'rni va ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritiladi. Mehnatga o'rgatish orqali o'quvchilarda mas'uliyat, tartib-intizom, mustaqillik va kasbga yo'naltirish ko'nikmalari shakllanishi qisqa va aniq tarzda bayon etiladi. Maqola mehnat tarbiyasining tarbiyaviy va amaliy jihatlarini yoritib beradi.

Kalit so'zlar: mehnat tarbiyasi, mas'uliyat, tartib-intizom, mehnat ko'nikmalari, kasbga yo'naltirish, shaxs kamoloti, tarbiyaviy jarayon.

Abstract: This article discusses the content of labor education, its role in personal development and its importance in the educational process. The formation of responsibility, discipline, independence and career orientation skills in students through labor education is briefly and clearly described. The article highlights the educational and practical aspects of labor education.

Keywords: labor education, responsibility, discipline, labor skills, vocational guidance, personal development, educational process.

Аннотация: В статье рассматривается содержание трудового воспитания, его роль в развитии личности и значение в образовательном процессе. Кратко и наглядно описывается формирование у учащихся навыков ответственности, дисциплины, самостоятельности и профессиональной ориентации посредством

трудового воспитания. В статье освещаются образовательные и практические аспекты трудового воспитания.

Ключевые слова: трудовое воспитание, ответственность, дисциплина, трудовые навыки, профессиональная ориентация, развитие личности, образовательный процесс.

Mehnat tarbiyasi - tarbiyaning muhim turi, shaxsni shakllantirishning zarur shartlaridan biri bo'lgan pedagogik jarayon. Mehnat tarbiyasi kishidan ijtimoiy foydali mehnatga ichki ehtiyoj, institutizom, batartiblik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ishchanlik, ishning ko'zini bilish singari sifatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Mehnat inson ehtiyojlarini qondirishning birinchi va asosiy vositasi bo'lganligi uchun ham Mehnat tarbiyasi tarbiyaning boshqa hamma turlaridan oldin paydo bo'lgan. Mehnat tarbiyasi g'oyat keng falsafiy-pedagogik kategoriya bo'lib, „mehnat ta'limi“, „kasbga yo'naltirish“, „politexnik ta'lim“, „kasb ta'limi“ singari tu-shunchalarni o'z ichiga oladi. Mehnat tarbiyasi berish hamma zamonlarda ham jamiyat taraqqiyotining asosi, yoshlarni hayotga tayyorlashning eng muhim vositasi bo'lib kelgan. Shuning uchun ham barcha ilo-hiy kitoblar va hamma mutafakkirlar tomonidan yaratilgan bitiklarda Mehnat tarbiyasi ga katta e'tibor berilgan. Lekin ularga materialist (moddiyunchi)lardan farqli tarzda Mehnat tarbiyasi deyilganda faqat jismoniy mehnatga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirish ko'zda tutilmagan. Mehnat tarbiyasi, avvalo, oilada bola o'zini anglay boshlashi bilanoq amalga oshirila boradi. Jumladan, chaqaloklar go'daklik bosqichiga o'tishlari bilanoq, ularga dastlabki Mehnat tarbiyasi berila boshlanadi. Shunday qilinmasa, bola faqat iste'molchiga aylanib qoladi va natijada u noshud va yalqovgina emas, ma'naviyati kemptik shaxs ham bo'lib shakllanishi mumkin. Bolalarga Mehnat tarbiyasi berishda bog'cha, maktab singari ijtimoiy pedagogik muassasalar katta o'rin tutadi.[1] Chunki bu muassasalarda Mehnat tarbiyasi ilmiy asosda tegishli mutaxassislar tomonidan uyushtiriladi. Mehnat tarbiyasini tashkil etishdagi asosiy jihat shundaki, u bolalarning yosh xususiyatlari, ruhiy, akliy va jismoniy imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi lozim. Bolaning imkoniyatlaridan yengil Mehnat tarbiyasi ularni zeriktirgani kabi ularning imkoniyatlaridan og'ir topshiriqlar bolalarni bezdirishi mumkin. Mehnat tarbiyasini

amalg oshirishda tizimlilik va institutizom bo'lishiga qat'iy amal qilinishi joiz. Aks holda, har qanday qobiliyatli bola ham yetarlicha Mehnat tarbiyasi ololmasligi mumkin. Mehnat tarbiyasi uchun maktab davri eng qulay fursatdir. Birinchi navbatda, o'qish jarayonining o'zi og'ir aqliy jismoniy mehnatdir. Maktabga o'z vaqtida kelib-ketish, o'qish-yozishni o'rganish, berilgan bilimlarni egallash uchun o'quvchilarga Mehnat tarbiyasi berilgan bo'lishi kerak. Chunki o'quv topshiriqlarini bajarish, dars o'zlashtirish, o'tilganlarni takrorlash, yozma ishlar bajarish, kerakli matnlarni yodlash, ko'chirmalar olish, lu-g'atlar bilan ishlay olishi uchun o'quvchi muayyan institutizomga rioya etishi, tashkilotchilik qobiliyati va ishchanlik xususiyatiga ega bo'lishi, ishning ko'zini bilishi kerak. Mehnat tarbiyasida, avval aytilganidek, mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish jarayonlarining ham o'рни katta. Chunki bu jarayonlarda o'quvchilar bevosita tegishli mehnat ko'nikmalarini egallash va ularni mustaqil ravishda qo'llash bosqichini o'taydilar. Shuningdek, ular bu asnoda qaysi bir mehnat yo'nalishi o'ziga muvofiqroq ekanligini bilib oladilar. Shuning uchun ham mehnat ta'limi imkon qadar xilma-xil bo'lishi hamda o'quvchilarning aqliy, jismoniy imkoniyatlari va jinsiy xususiyatlariga muvofiq kelishi zarur.[2]

O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida“gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (1997-yil 29-avgust)ga muvofiq, o'rta maxsus ta'lim bosqichining majburiy bo'lganligi o'zbek o'quvchilariga Mehnat tarbiyasi berishda alo-hida ahamiyat kasb etadi. Chunki, bu bosqich to'liq kasbga yo'naltirilgan bo'lib, kasbhunar kollejlari o'quvchilari bevosita o'zlari tanlagan kasblarga doir ko'nikma va malakalar shakllantirsalar, akademik litsey o'quvchilari kelajakda egallaydigan kasblarning nazariy asoslarini o'zlashtiradilar. Oliy ta'limning bakalavriat va magistratura bosqichlarida Mehnat tarbiyasi bevosita kasb ta'limi bilan qo'shib amalga oshiriladi. Mehnat tarbiyasi berishda o'quvchilarning bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Bolalarning o'quv rejasida ko'zda tutilgan, mehnat amaliyotini o'tashlarini to'g'ri tashkil etish, ularni bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari qoshidagi to'garaklarga ko'proq jalb qilish yosh avlodning komil shaxslar sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning kundalik turmush tarzi mehnat va faoliyat bilan bog'liqdir. Shu sababli mehnat umuminsoniy, milliy, moddiy va ma'naviy boyliklarning ijtimoiy taraqqiyoti negizi hisoblanadi. Har tomonlama yetuk, barkamol avlodni yetishtirishda mehnat

tarbiyasining o'rni beqiyosdir. Mehnat tarbiyasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir. Shuningdek, bolaning har tomonlama shakllanish vositasi, uning shaxs sifatida ulg'ayish omili hamdir. Muntazam qilingan mehnat jarayonida bola o'z aqlini, irodasini, hissiyotini, xarakterini rivojlantirishi mumkin. Mehnat tarbiyasi o'quvchilarga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Mehnat tarbiyasini shunday tashkil etish kerakki, inson mehnat jarayoni va uning natijasidan qanoatlanishini tarkib toptirishga ko'maklashsin. Mehnat tarbiyasining provard maqsadi shaxs xarakterining asosiy xislati sifatida uning mehnatga bo'lgan ehtiyojini shakllantirishdir. [3]

Mehnat tarbiyasida maqsadga erishish yo'lida quyidagi vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq:-yosh avlodda mehnat qilish istagini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlash;

- o'quvchilarda umumjamiyat manfaati yo'lida mehnat qilish ehtiyojini hosil qilish;

- ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish;

-o'quvchilarning mavjud bilimlarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

- ularda mehnat ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish;

-o'quvchilar faoliyatida yuqori madaniyat, maqsadga intilish, tashkilotchilik, mehnat intizomi, tadbirkorlik, tejamkorlik, ishni sifatli bajarish, moddiy boyliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, hayotiy faoliyat yo'nalishini belgilash malakalarini shakllantirish;

-o'quvchilarda davlat iqtisodiy siyosati mazmuniga tayangan holda ular yashab turgan hududlar ishlab chiqarish xususiyatlariga muvofiq kasblarni egallashga bo'lgan qiziqishini oshirish;

-o'quvchilarni kasbga yo'llash, ularni mehnat faoliyatining barcha turlari, shuningdek, ular yashayotgan hududda ehtiyoj mavjud bo'lgan mutaxassissliklar bilan tanishtirish.

O'quvchilar mehnat faoliyatining turlari xilma-xil bo'lib, ular quyidagilardir: 1. Maishiy mehnat;

2. O'quv mehnati;
3. O'quv ishlab chiqarish mehnati;
4. Texnik mehnat;
5. Ijtimoiy-unumli mehnat;
6. Ijtimoiy-foydali mehnat va boshqalar.

Oilada mehnat tarbiyasining dastlabki unsurlari qo'llaniladi. Bola muayyan yoshga to'lgach, kattalarga yordamlashadi, o'z imkoniyatlarini anglab yetadi va o'quv (ta'lim) mehnatiga muntazam tayyorlanadi.

Mehnat tarbiyasini tashkil etishning pedagogic shart-sharoitlari:

1. Bolalar mehnatining o'quv-tarbiyaviy vazifalar bilan bog'liqligi;
2. Ijtimoiy ahamiyatli mehnatni o'quvchilarning qiziqishlari bilan birga qo'shib olib borilishi;
3. Mehnat faoliyatining hamma bopligi va qo'ldan kela olishi;
4. Mehnat faoliyatining majburiyligi va vijdoniyligi;
5. Mehnat faoliyatini tashkil etishda jamoaviy va individual shakllarini birga qo'shib olib boorish.

Mehnatning ijtimoiy-axloqiy ahamiyatiga e'tibor berish, mehnat o'quvchining yoshi, hayot tajribasi va imkoniyatlariga mos bo'lishi, ularning mehnat faoliyatlari ijodiy harakatda bo'lishi, o'z vaqtida kasblar haqida ma'lumotlar berib borilishi, mehnat ahillari bilan doimo suhbat va uchrashuvlar tashkil qilish kabilar. Mehnat tarbiyasining bosh g'oyasi shaxsda mehnat faoliyatini tashkil etish, ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ijtimoiy mehnatni qadrlash, mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash sanaladi.

Buyuk ajdodlarimiz mehnat tarbiyasi to'g'risida to'xtalib, qimmatli fikrlarni bildirib o'tishgan. Masalan, Abdurahmon Jomiy: "Oltin topmagnu o'rgan-gin hunar, hunarning oldida xasdir oltin-zar", - degan fikr bildirsalar, ulug' mutafakkir Alisher Navoiy: "Umrni zoye etma, mehnat qil, mehnatni saodatning kaliti bil", - deydilar. Fransuz adibi Anatol Frank: "Eng yaxshi axloqiy va estetik dori - mehnat", - degan fikrni ilgari suradi. Bundan tashqari "Avesto", Kaykovusning "Qobusnoma", Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Rayhon Beruniyning "Geodeziya", "Minerologoya", Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiyning bir qator asarlari va shu kabi ma'rifiy meros namunalarida mehnatsevarlik, kasb-hunarning ahamiyati haqida muhim fikrlar bayon etilgan. Bir qator o'zbek maqollarida ham inson hayotida mehnat alohida ulug'lanadi. Masalan, "Mehnat baxt keltirar", Mehnat e'tibor garovi", "Mehnatsiz rohat yo'q", "Mehnat qacha og'ir bo'lsa, keti shuncha shirin bo'lar" va boshqalar.

Bu nazariyalar bolalarning mehnat faoliyatiga bo'lgan munosabatini o'zgartirishda, ularning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda va mehnat madaniyatini o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnat tarbiyasining mazmuni bolalarning yoshiga, qobiliyatlariga va qiziqishlariga mos ravishda tashkil etilishi zarur. Bu jarayon o'yinlar, amaliy ishlar, ijodiy faoliyatlar va jamoaviy ishlar orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari, oila va bog'cha o'rtasidagi hamkorlik mehnat tarbiyasining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ota-onalar va o'qituvchilar birgalikda bolalarga mehnat faoliyatining ahamiyatini tushuntirib, ularga rag'bat berishlari kerak. Shunday qilib, mehnat tarbiyasi nafaqat ta'lim jarayonini, balki bolalarning shaxsiy rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu jarayon, shuningdek, bolalarga kelajakda mustaqil hayot kechirishda zarur ko'nikmalarni o'zlashtirishga yordam beradi. Mehnat tarbiyasining nazariy asoslari va maktabgacha ta'limdagi mazmuni bolalarning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir qator muhim jihatlarni o'z ichiga oladi.[4]

Umumiy xulosa: Mehnat tarbiyasi o'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishida alohida o'rin tutadi. U nafaqat mehnat malakalari va ko'nikmalarini shakllantiradi, balki

bolalarda mas'uliyat, intizom, tashabbuskorlik, tejamkorlik, jamoada ishlash madaniyati kabi muhim fazilatlarni rivojlantiradi. Mehnat jarayonlari orqali o'quvchilar real hayot tajribasiga ega bo'lib, mehnatning ijtimoiy ahamiyatini anglaydi, kasb tanlashga bo'lgan qiziqish va motivatsiyasi ortadi. Ta'lim jarayonida mehnat tarbiyasining to'g'ri tashkil etilishi yoshlarning mustaqil fikrlashi, muammolarni hal qila olishi, o'z mehnat natijasiga nisbatan mas'uliyatli munosabatini shakllantiradi. Shu bois mehnat tarbiyasi ta'lim-tarbiya tizimining ajralmas qismi bo'lib, jamiyatda yetuk, faol va mehnatsevar avlodni tarbiyalashning ishonchli omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirova F., Xasanov B. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: “Fan”, 2019.
2. Yo'ldoshev J., Hasanboeva O. Oila va maktabda tarbiya jarayoni. – Toshkent: “O'qituvchi”, 2017.
3. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: “TDPU nashriyoti”, 2020.
4. Mavlonova R., Masharipova N. Umumiy pedagogika. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2018.